

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

CURRENT ISSUES OF DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS

Sabirov Nazir Najmetdinovich¹¹Sabirov Nazir Najmetdinovich

– Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning yangi bochqichdagi dolzarb masalalari, xalq bilan muloqot qilish, fuqarolik jamiyati kafolati sifatida tahlil qilinishi, shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda inson - jamiyat - davlat uchligi va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari falsafiy tahlil qilingan. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi joriy qilinadi va unga ko'ra har yil yakunlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy sheriklik darajasi, ajratilgan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar natijadorligi va boshqa muhim faoliyat ko'rsatkichlariga asosan ularning reytingi tuziladi.

Аннотация

В данной статье актуальные вопросы развития институтов гражданского общества в Узбекистане, коммуникации с народом, анализ как гарантия гражданского общества, а также триединство человек-общество-государство и социальные трансформационные процессы в развитии гражданского общества подвергаются философскому анализу.

Вводится индекс открытости деятельности негосударственных некоммерческих организаций, по которому в конце каждого года составляется их ранжирование на основе деятельности, осуществляемой негосударственными некоммерческими организациями, уровень социального партнерства, эффективность выделяемых субсидий, грантов и социальных заказов и другие важные показатели эффективности.

Abstract

In this article, the current issues of the development of civil society institutions in Uzbekistan, communication with the people, analysis as a guarantee of civil society, as well as the human-society-state trinity and social transformation processes in the development of civil society are philosophically analyzed. The index of openness of the activities of non-governmental non-profit organizations is introduced, and according to it, at the end of each year, their ranking is made based on the activities performed by non-governmental non-profit organizations, the level of social partnership, the effectiveness of allocated subsidies, grants and social orders, and other important performance indicators.

Kalit so'zlar: Fuqaro, jamiyat, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy institutlar, demokratik institutlar, fuqarolarning huquq.

Ключевые слова: Гражданское, общество, гражданское общество, государство, юридическое государство, институты гражданского общества, политические институты, демократические институты, граждане.

Key words: Civil, Society, Civil Society, State, Legal State, Civil Society Institutions, Political Institutions, Democratic Institutions, Citizens.

KIRISH

Mamlakatimizda “Inson qadri hamma narsadan ustun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, “Davlat bosh islohotchi” tamoyilidan “Jamiyat islohotlarning tashabbuskori” ga o'tish, “davlat-jamiyat-shaxs” yondashuvining “inson-jamiyat-davlat” asosida transformatsiya qilinishi va “Davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi” inson huquqlari va manfaatlarini so'zsis ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Asosiy Qonunimizda belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularning faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakatning turli tabiiy, intellektual, iqtisodiy resurslaridan unumli foydalangan holda xalq farovonligini ta'minlash uchun fuqarolik institutlarining ijtimoiy mas'uliyati qanday bo'lishi lozim? Ushbu savollarning javobini fuqarolik institutlarining asosiy quroli bilan jamoatchilik fikri kuchidan izlashimiz lozim. Yangi O'zbekiston davlati va jamiyati asoschisi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning nutqida ham mazkur masala ijtimoiy boshqaruv tizimining metodologik asosi sifatida belgilandi. “Davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o'zgartirish, uni milliy qonunchiligimiz va huquqiy amaliyotimizda mustahkamlash zarur, — deb bildirilgan xulosasi yuqorida qayd etilgan fuqarolarning diskursiv mazmunini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlanishida va uning institutlari faoliyatini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan olimlarimiz A.Saidov, A.A.Huseynova, M.B.Bekmurotov, T.Matibayev, A.Jalilov, U.Muhammadiyev, Q.Jo'rayev, S.Saidov, N.T.Norkulova, G.G.Tagiyeva va boshqalar fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari va belgilarini, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy asoslarini nazariy jihatdan o'z fikr va mulohazalarini bildirganlar. Ularning asarlari, tadqiqotlarida mavzumizga doir ilmiy nazariy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratish o'rinli deb hisoblaymiz.

Xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda mavzumizga taalluqli ilmiy ishlar va adabiyotlardan emas, balki davlat boshqaruvida ijtimoiy, iqtisodiy barqaror jamiyatni barpo etish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining huquqiy, ijtimoiy asoslarini ta'minlab berish uchun ishlab chiqilayotgan mamlakatimizdagi qonun hujjatlari va Yangi O'zbekiston strategiyasini har tomonlama o'rganish talab etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021 – 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-sonli Farmoni mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi, deb aytish mumkin. Shu bilan birga, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetti ustuvor yo'nalish hamda yuz maqsaddan iborat "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Asosiy Qonunimizda belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularining faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi [1, 187-188 b].

Ayni paytda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni Konstitutsiya darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlash imkoniyatlari yuzaga keldi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillikda islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratilishi bevosita fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bilan bog'liq islohotlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi [2].

Mazkur hujjatda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat hamda qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy, zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo'llab-quvvatlash hajmini 2021-yilda kamida 1,2 baravarga, 2025-yilda 1,8 baravarga oshirish rejalashtirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2021 yilda 16 milliard so'm, 2025-yilda 70 milliard so'm mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi a'zolari sonini jami faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat, notijorat tashkilotlari soniga nisbatan 2021-yilda 10 foizga, 2025-yilda 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Har bir davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatida fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining sonini (jami jamoatchilik kengashlari tarkiblariga kiritilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining soniga nisbatan) 2021-yilda 5 foizga, 2025-yilda 25 foizga yetkazish, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflarning umumiy sonini 2021-yilda 1 000 taga, 2025-yilda 5 000 taga yetkazilishini ta'minlash belgilangan.

Mamlakatimizda e'lon qilinadigan yilga oid davlat dasturida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini 2021 yilda 30 taga, 2025-yildagi davlat dasturida – 50 taga yetkazilmoqda. Amaldagi jarayonlarni soddalashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan sodir qilinayotgan huquqbuzarliklarni (jami 2020-yilda sodir qilingan

FALSAFA

huquqbuzarliklar soniga nisbatan) 2021-yilda 3,8 foizga, 2025-yilda 19,2 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan. 2021-yilda 50 ta, 2025-yilda 250 ta nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini Davlat boshqaruvi akademiyasida qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish nazarda tutilgan [3, 187-188 b].

Endilikda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi yuritiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda ochiqlik indeksi shakllantiriladi va indeks natijalari ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib boriladi. Hujjatda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini ishlab chiqish va to'liq amaliyotga joriy qilish adliya organlariga yuklatilgan. Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini shakllantirish tartibini Adliya vazirligi, Jamoatchilik palatasi va O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqish bo'yicha hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari (komissiyalar) majlislarida ishtirok etuvchi doimiy vakili institutining joriy etilishi ularning faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Doimiy vakilning asosiy vazifalari etib qonun loyihalari va quyi palataning vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha muhokamalar va yig'ilishlarda ijtimoiy sheriklik, ta'sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy qilish va ularni amaliyotga to'g'ri qo'llash, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq va manfaatlarini ifoda qilish belgilandi. Doimiy vakil fuqarolik jamiyati rivojiga hissa qo'shgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda faollik ko'rsatgan, el-yurt izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari orasidan Jamoatchilik palatasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etadi. Jamoatchilik kengashlarining umumiy a'zolari soni 15 nafardan kam bo'lmasligi zarur va davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (yoki axborot xizmati) jamoatchilik kengashlarining ishchi organi hisoblanadi, ular faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta'minlaydi.

Homyilik mablag'larini markazlashtirilgan holda to'plash va tarqatish, ularning maqsadli hamda manzilli yo'naltirilishini monitoring qilish, ushbu jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish va oshkoraligini ta'minlash, shuningdek, xayriya etuvchi o'z mablag'ining ishlatilishini kuzatib borish imkonini beruvchi «Shaffof xayriya» yagona interaktiv portalini 2021-yil 1-maydan boshlab ishga tushirildi. «Shaffof xayriya» yagona interaktiv portalini ishlab chiqish va ishga tushirish bilan bog'liq xarajatlar «O'zbekiston mehr-shafqat va salomatlik» jamoat fondi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan [3].

Vazirlar Mahkamasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig'i hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari «Shaffof xayriya» yagona interaktiv portalini o'z vaqtida ishga tushirish, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi bilan integratsiyalash, zarur bo'lganda, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish yuzasidan shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilgan.

2021-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida «Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari» tashkil etilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklariga «Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari»ni foydalanishga topshirish, shuningdek, ularni zarur ofis anjomlari, mebel, buyumlar, texnika va boshqa vositalar bilan ta'minlash vazifalari berilgan [4].

Mazkur binolarga yangi tashkil etilgan, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga nodavlat notijorat tashkilotlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, bo'shab yotgan va samarali foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlari negizida tuman (shahar)larda «Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari»ni tashkil etishmoqda.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar mas'ul xodimlaridan iborat bo'lgan ishchi guruhlar barcha hududlarda bo'lib, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada kuchaytirish, davlat organlari bilan birga qo'shma loyihalarni amalga oshirish, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, bandlik, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi kabi sohalarda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan «Yo'l xarita»lari ishlab chiqilgan [8, 135-137 b].

Oliy Majlis palatalariga Jamoatchilik palatasi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yagona vertikal tizimini joriy qilinmoqda.

Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish, davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar berish tartibini soddalashtirish, ajratilayotgan mablag'larni ustuvor ravishda ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, bandlik, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi kabi sohalarda muammolarni hal etish uchun ijtimoiy buyurtmalarga yo'naltirilmoqda.

Mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazorati ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Adliya vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda Jahon xayriya indeksi (The World Giving Index) bo'yicha O'zbekistonning dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta'minlash rejalashtirilgan.

Har qanday ijtimoiy hodisa, jamiyatning muayyan ehtiyojlari kompleksi asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Shu jumladan, "Jamoatchilik fikri shakllanishda ham ehtiyoj birlamchi asos hisoblanadi. Ya'ni ijtimoiy hodisalar tizimining obyektiv shart sharoitlari, subyektiv omillari tarkibida ehtiyojlar uning genezisida dastlabki boshlang'ich nuqtadir. Zero, ehtiyoj – tarixiy taraqqiyot jarayonida inson, shaxs, sotsial guruh, umuman jamiyat hayot faoliyati uchun (obyektiv shart-sharoitlarni), inson faollik imkoniyatlarini (subyektiv omillarni) yuzaga chiqaruvchi sabab, motivdir" — deb jamoatchilik fikriga o'z qarashlarini bildiradi [7, 67-68 b].

Darhaqiqat, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlar dinamikasining o'sishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson va jamiyat o'rtasida munosabatlar barqarorligi zamirida subyektiv ehtiyojlar va manfaatlar yotgan bo'ladi. Holbuki, jamiyatning rivojlanishi uchun yanada yuksak ehtiyojlarni paydo bo'lishida subyektlarning oldingi ehtiyojlari ijobiy hal etilgan bo'lib, qondirilishi turtki bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar fuqarolik institutlarining jamoatchilik bilan ishlash holati tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvini tashkil qiluvchi tashkilotlar vazirliklar, agentlik, qo'mita va muassasalarning faoliyati xalq irodasiga qancha yaqin amal qilsa, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muhit barqarorligi shuncha mustahkamlanadi. Xalqdan olinadigan axborotlar, xohish va maqsadlar asosida shakllantiriluvchi siyosat ustidan o'rnatuvchi jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvi xalqchilligini kafolati tarzda ta'minlaydi.

Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda tashabbuskor, ahil, mas'uliyatli jamiyatni barpo etishga ko'mak beruvchi eng yaxshi asos nima? Mamlakatning turli tabiiy, intellektual, iqtisodiy resurslaridan unumli foydalangan holda xalq farovonligini ta'minlash uchun fuqarolik institutlarining ijtimoiy mas'uliyati qanday bo'lishi lozim? Ushbu savollarning javobini fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy quroli bilan jamoatchilik nazorati bilan bog'liq. Yangi O'zbekiston davlati va jamiyati asoschisi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning nutqida ham mazkur masala ijtimoiy boshqaruv tizimining metodologik asosi sifatida belgilandi. "Davlat – jamiyat – inson" tamoyilini "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirish, uni milliy qonunchiligimiz va huquqiy amaliyotimizda mustahkamlash zarur — deb bildirilgan xulosasi yuqorida qayd etilgan fuqarolarning diskursiv mazmunini ifodalaydi [14, 72-78 b].

Hozirgi tez o'zgarayotgan ijtimoiy makonda jamiyatni qamrab olgan barcha aloqalar tizimlarining murakkablashishi fuqarolik institutlariga bo'lgan e'tiborni uzluksiz kuchaytirmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy fanlarining deyarli barcha sohaları mutaxassisleri tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari o'rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda.

XULOSA

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlariga bo'lgan qiziqishlarning ortishini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy kuchi bo'lgan jamoatchilik nazorati ko'pchilik insonlarning hayotiy talablari va manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, aholining asosiy va ikkilamchi ehtiyojlarini tadqiq etishi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, siyosiy sohada u demokratiyani o'rnatish, o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirishning zarur shakli sifatida harakat qilsa, ijtimoiy sohada odamlararo va jamoalararo jarayonlarni boshqarishning eng muhim vositasi sifatida davlat va jamiyat institutlari faoliyatiga faol ta'sir o'tkazadi. Iqtisodiyot sohasida esa milliy iqtisodiyotdagi ishlarni insonning moddiy ehtiyojlariga nisbatini baholaydi. Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshiruvchi himoyachi sifatida jamoatchilik munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy-ma'rifiy sohada muhim etalon bo'lib, insonlarning aksariyatining xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini hayotga muvofiq shakllanishini nazorat qiladi.

FALSAFA

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatda ijtimoiy-ruhiy salohiyatga ega va o'zini faol stimulyator sifatida namoyon qilish mumkin, bu ma'lum yo'nalish va keng ko'lamni, odamlarning ijtimoiy harakatlari va ishlariga talabchanlik hamda barqarorlik beradi.

To'rtinchidan, odamlarning bilimi va ongining o'sishi orqali fuqarolik jamiyati institutlarining namoyon bo'lish doirasi sezilarli darajada oshmoqda. Bugungi kunda tobora ijtimoiy o'zgarishlarning omiliga aylanib turli xil muammolarni hal qilishda va hayotiy, ijtimoiy taraqqiyot borasidagi kelib chiqadigan murakkab ziddiyatli vaziyatlarni tushunib shiddat bilan kirib bormoqda.

Aslida har qanday demokratik jamiyatda "Davlat va jamiyat o'rtasida o'zga xos shartnoma, kelishuv bo'lishi kerak. Shunga muvofiq siyosiy hokimiyat chegaralanadi, fuqarolar va guruhlarining hokimiyatini suiiste'mol qilishidan hamda o'zini o'zi himoyalashning rasmiylashtirilgan usullari qaror topadi".

Albatta, yuqoridagi tamoyillar asosida jamoatchilik fikrining rivojlantirish, fuqarolik jamiyati va uning institutlariga hamda demokratik jamiyat barpo bo'lishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan – "Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, "Xalq – qonunlarining tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi" tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha katta urg'u bergan. Bu fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada takomillashtirishni kun tartibiga qo'yadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Биз келажакимизни уз кулимиз билан курамиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 7-жилд. 304-б.
2. Шавкат Мирзиёев: Маҳалла раиси - Президентнинг куйи бўғиндаги устун <https://president.uz/uz/lists/view/4086>
3. Мирзиёев Ш.М. Янги 2022 йилни Ўзбекистонда «Инсон кадрини улуглаш ва фаол маҳалла йили» деб эълон қилиниши. - <https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/31/2022-year/>.
4. Президент Шавкат Мирзиёевнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табриги. 27.06.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5294>
5. Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – С. 602–644.
6. Девисон В.Ф. "Жамоатчилик фикри" Британия энтсиклопедияси, 2020 йил 13 ноябрь <https://www.britannica.com/topic/public-opinion>.
7. Токвиль А. Демократия в Америке: Пер. с. франц. / Предисл. Гарольда Дж. Ласки. – М.: Прогресс, 1992.
8. Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. Изд. 2-е. Т. 23. – С. 770.
9. Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида. "Билим ва интеллектуал салоҳият", Тошкент: 2019 йил, 19-бет.
10. Каримов И.А. Биз келажакимизни уз кулимиз билан курамиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 7-жилд. 304-б.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 мартдаги "2021 – 2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ги ПФ-6181-сонли Фармони.
12. Маркс К. Капитал: критика политической экономии Т: 1. Государственное издательство политической литературы. 1952. 797 с.
13. Гайдученко Т.Н. Профессиональное образование как фактор формирования и развития социальной группы предпринимателей. Автореф. дис. докт. соц. наук Т.Н. Гайдученко; Казан: 2003. С.14.
14. Яздонов У.Т. Глобаллашув шароитида жамоатчилик фикрини шакллантириш институтларининг функционал интеграциялашув хусусиятлари, дисс.фан.док.-автореферат. Самарқанд 2017 й., 15-бет.